

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING OILA BILAN HAMKORLIGINING PEDAGOGIK YO'LLARI

Daliyeva Xabibaxon Sabirovna  
Qurbanova Lobar Tursunniyazovna  
Aminova Ambar Xusinovna

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lismi va tarbiya yoshidagi bolalarning yuqori sifatli ta'lismi olishiga, ota-onalarning ehtiyojlari va bolalarning manfaatlarini to'liq qondirishga, bola uchun yagona ta'lismi makonini yaratishga faqat ilk bolalikdan maktabgacha ta'lismi tashkiloti va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi tizimini ishlab chiqqan holdagini erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Sensor ko'nikmalar, hissiy bardamlik, faoliyat yo'nalishlari, hissiyot olami.

Jahon miqyosida sifatli maktabgacha ta'lismi inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashdagi muhim investitsiya sifatida belgilanmoqda. Jumladan, BMTning 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, shuningdek, YUNISEFning maktabgacha ta'lismi tizimini rivojlantirish strategiyasida ilk yoshdanoq sifatli maktabgacha ta'lismi bilan qamrovni oshirish hamda maktabgacha ta'lismi innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish ko'rsatkichlari asosiy indikatorlardan biri sifatida qayd etilgan.

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o'zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o'zaro aloqa shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma'naviy yo'nalishidagi o'zgarishlari oila faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar oila qurish, mehrmuhabbat, o'zaro do'stlik va farzand ko'rishni rejalashtirishda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev: "Oila biz uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman"<sup>1</sup> – deb fikrini bildirdi.

Oilanning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko'paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma'lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyat yuritmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan, ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an'anaviy qismi sifatida o'rganilmoqda. Ikkinchisi tomonidan esa oila sotsiologiya va filologiya yo'nalishida ham tadqiq etilmoqda.

Maktabgacha ta'lismi tashkilotlari uzlucksiz ta'lismi tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda maktabgacha ta'lismi tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi. Insonning shaxsi va g'oyaviy dunyosi yoshlik yillarida shakllanadi. Shu sababli milliy mafkura asoslarini ularning ongiga singdirishda bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanish lozim. Maktabgacha ta'lismi sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni mакtabda muntazam ravishda ta'lismi olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lismi bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lismi tashkiloti ta'lismi-tarbiya va sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi va quyidagilar uning vazifalariga kiradi: – oila bilan ta'lismi-tarbiyaviy hamkorligini kuchaytirish; – bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish; – bolaning intellektual, shaxsiy va

<sup>1</sup> O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev hujjalni filmda oilaning hayotidagi o'rni hamda nima uni baxtli qilishi to'g'risidagi nutqidan. 2018 yil 24 iyun.

jismoniy rivojlanishini ta'minlash; – bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish; – bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlarasi asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash; – bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish; – bolalarning tafakkurini rivojlanirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish; – bolalarni bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish manbalarini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash.

Hozirgi kunda bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Barchaga ma'lumki bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi. Chunki oila quydagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- Ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;
- Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi.
- Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla, ijtimoiy tajribani bolaga o'ziga xos tarzda yetkazadi. Faqat ular bir-biri bilan uyg'un holda kichkina insonning katta dunyoga kirishlari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadilar. Pedagoglar bolaning dastlabki tabiyachisi sifatida oilaning yetakchi rolini tan olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa muddatli guruhg'a kelgunga qadar oila bolaga madaniyatni, muhim va eng zarur ko'nikmalarni singdirishga ulguradi. Bolani maktabga tayyorlash bola va oila o'rtasida shakllangan ana shu dastlabki munosabatlarga tayangan holda ota-onalarga qisqa muddatli guruhlar faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etishga imkon beradi. Oilalarni jalb etish maktabga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bilim olish faoliyatini boyitishda, bola qiziqishlari va uydagi ta'lim-tarbiya natijalaridan foydalanishda muhim o'rin egallaydi.

Bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishida ikki ta'lim muhiti – uy va qisqa muddatli guruhlarning bir-biri bilan bahamjihatligi g'oyat muhimdir. Oilalarda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari turlicha olib boriladi. Ba'zi oilalarda bolalar bilan ko'p shug'ullanilsa ham, bu asosan o'quv mashg'ulotlaridir – husnixat yozuvni, alifbe o'rgatish, turli adabiyotlar o'qib berish bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan syujetli o'yinlar, harakat faolligi, tasviriy faoliyatga oid ishlari bilan shug'ullanmaydilar. Boshqa oilalarda bolani o'yinchoqlar va televizor bilan yakkama-yakka qoldirib, bu unga yoqadi va rivojlanishi uchun yetarli bilim beradi deb hisoblashadi. Natijada ayrim hollarda qisqa muddatli guruhlarga rivojlanishida muayyan muammolari, mustaqil faoliyatni yetarli darajada amalga oshira olmaydigan, maqsadga erishish uchun irodasi bo'sh, o'zaro hurmat, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar asosida boshqalar bilan birlgiligidagi faoliyatni tashkil eta olmaydigan bolalar qabul qilinadi.

Bundan tashqari, ayrim bolalarda sensor ko'nikmalari, tasavvurlarining rivojlanmagani, hissiyot olamining qashshoqligi kuzatiladi. Uydagi ta'lim-tarbiyaning turli-tuman sharoitlari ta'sirida bolalar rivojlanishining alohida sohalari bo'yicha erishilgan natijalarning har xillagini qayd etish muhim. Qisqa muddatli guruhlarga kelayotgan bolalarga xos ana shu xususiyatlarni ta'lim jarayonida albatta e'tiborga olish, ularni ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivojlanirishga emas, balki umumrivojlaniruvchi vazifalarni hal etishga, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirgan ma'qul. Vaqtining katta qismini bola maktabgacha ta'lim tashkiloti va uyda o'tkazadi, shuning uchun pedagoglar va ota-onalarning ta'siri bir-biriga zid bo'imasligi, aksincha, bola tomonidan ijobiy va faol qabul qilinishi kerak. Bunga pedagoglar va ota-onalar hamkor va hamfikr bo'lib, tarbiyaviy muammolarni bahamjihatlik bilan hal etish orqaligina erishish mumkin. Pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda va bevosita pedagogik jarayonning o'ziga ota-onalarni jalb etishni, ularga bolalar bilan rivojlaniruvchi o'zaro aloqalar shakllarni o'rgatish, bolalarning ta'lim tarbiyasiga doir metodik yordam berishni nazarda tutadigan oilalar bilan

ijtimoiy-pedagogik ishlarning ahamiyatga katta e'tibor berishlari lozim. Samarali faoliyat yuritish va oilani maktabgacha ta'lif tashkiloti ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zлari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkilotiga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish.
2. Bolalaning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning maktabgacha ta'lif tashkiloti kirishiga ko'maklashish.
3. Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish.
4. Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish omillaridan biri bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o'r ganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirishdir. O'quvchitalabalarni har tomonlama o'r ganish ularni o'qishga, mehnatga, o'z-o'ziga, o'rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo'lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish imkonini beradi.
5. Ota-onalar o'rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada qiyinchilikka uchrayotgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim.
6. Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni ta'lif muassasining kengaytirilgan yig'ilishlariga, ota-onalar qo'mitalarining majlislariga taklif etish va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni yo'lga qo'yish nihoyatda muhimdir. Ulardan unumli foydalanish uchun ta'lif muassasalarda tashkil etilgan ota-onalar kuni ishini jonlantirish.
7. Ota-onalar qo'mitalari rahbarlarining bevosita boshchiligidagi radioaloqalarni tashkil etish. Bunda "Ota-onalar – ilk tarbiyachi", "Ota-onalarning bola tarbiyasidagi shaxsiy namunalari va ularning ahamiyati", "Yoshlarni mehnatga, hayotga, turmushga o'rgatish va tayyorlashda ta'lif muassasasining o'rni" bo'yicha eshittirishlarni tayyorlab, izchil o'tkazish zarur.

Shunday qilib, ota-onalarning maktabgacha ta'lif tashkiloti faoliyatiga jalb etilishi bolalarga ham, ota-onalarga ham, maktabgacha ta'lif tashkilotiga ham foya keltiradi. Muloqot, o'zaro hurmat, bola manfaatlarining muhimligini e'tirof etish samarali hamkorlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev hujjaligi filmda oilaning hayotidagi o'rni hamda nima uni baxtli qilishi to'g'risidagi nutqidan. 2018 yil 24 iyun.
2. "Ilk Qadam" Maktabgacha ta'lif muassasasining Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining 2018 yil, 7 iyuldaggi 4-son hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan.
3. Maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini mavzuli rejalashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
4. O.U.Hasanboeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o'quv qo'llanma (3-nashr) T.: "Ilm ziyo", 2012y